BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

MADAMINOV FARRUXBEK MA'RUFJON O'G'LI

O'ZBEKISTON FLORASIDAGI *PARRYA* R.BR. TURKUMI TURLARINING TAKSONOMIYASI, GEOGRAFIYASI VA EKOLOGIYASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 581.9:582.683.2 (043.3)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Madaminov Farruxbek Ma`rufjon o‘g‘li
O‘zbekiston florasidagi *Parrya* R.Br. turkumi turlarining taksonomiyasi, geografiyasi va ekologiyasi 3

Мадаминов Фаррухбек Маъруфжон угли
Таксономия, география и экология видов рода *Parrya* R.Br. флоры Узбекистана …..…….…..... 21

Madaminov Farrukhbek Marufjon ogli
Taxonomy, geography and ecology of genus *Parrya* R.Br. in the flora of Uzbekistan…….. 40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works …….. 44

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

MADAMINOV FARRUXBEK MA’RUFJON O‘G‘LI

O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *PARRYA* R.BR. TURKUMI TURLARINING TAKSONOMIYASI, GEOGRAFIYASI VA EKOLOGIYASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/B723 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Farxod Isomiddinovich** biologiya fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**Raximova Tashxanim** Biologiya fanlari doktori, professor **Esanov Husniddin Qurbonovich** Biologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 8-may kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (70-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 24-aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil 24-apreldagi 9-aqamli reestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, akademik

A.V. Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bioxilma-xillikni saqlash va tabiiy ekosistemalar barqarorligini ta’minlash bugungi kunda global muammo hisoblanadi. Turli ekologik omillar ta’sirida atrof-muhitning o‘zgarishi biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga, jumladan, o‘simlik dunyosi resurslari xilma-xilligining kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, tabiiy hududlarda tarqalgan o‘simliklarning tur tarkibini aniqlash, kamyob va endemik turlarni saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turli tabiiy geografik mintaqalarda tarqalgan o‘simiklarni saqlab qolish zamirida turlarni floristik tahlil qilish, muhofazaga muhtoj o‘simliklar areallari chegarasini belgilash, biotop xususiyatlariga bog‘liq taqsimlanishi, ekologik xususiyatlari hamda noyob, endem va yo‘qolib ketish arafasidagi turlarini saqlab qolishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, dunyo florasida *Parrya* R.Br. (*Brassicaceae* Burnett) turkumi 43 turni tashkil etsada, lekin, juda tor areallarda tarqalganligi, o‘zining noyob va endem vakillari ko‘pligi bilan ajralib turishligi sababli ushbu o‘simliklarni o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirda respublikamizda o‘simliklar dunyosi bioxilma-xilligini saqlash borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Bu borada, o‘simliklarning noyob va yo‘qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, 2019–2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida “O‘simlik va hayvonot dunyosi monitoringini tashkil qilish va amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi biologik xilma-xillik komponentlarining yagona monitoringini olib borish tizimini yaratish” va “Zamonaviy geoaxborot texnologiyalari (GIS- texnologiyalar) asosida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari davlat kadastri va monitoringi bo‘yicha ma’lumotlar axborot bazasini yaratish” kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston florasi turlarining taksonomik tarkibini aniqlash, geografik va ekologik tahlillar o‘tkazish, ularning tarqalishiga abiotik omillarning ta’sirini o‘rganish hamda noyob va endemik turlarni saqlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-son “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019–2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-dekabrdagi №1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash

to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [1]“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida *Parrya* 43 turni o‘z ichiga olgan, Brassicaceae oilasining eng yirik turkumlaridan biri hisoblanadi. Birinchi marotaba Robert Brown tomonidan fanga kiritilgan (1823), turkum gulining belgilari, meva va urug‘ kabi xususiyatlarini J. Hocker (1833), K. Ledebour (1842), N.S. Turczaninow (1842), G. Bentham et J. Hocker (1862); turkumning dastlabki sistematikasi N.A. Bush (1939), tipifikatsiyasi J.R. Grant (1994), turkum turlarining bir qancha kombinatsiyalarini I.A. Al-Shehbaz et al. (2007) va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

O‘rta Osiyo olimlari *Parrya* turkumi turlarining taksonomiya va biogeografiyasiga ulkan hissa qo‘shganlar. 1974-yilda, O‘rta Osiyo o‘simliklarining aniqlash qo‘llanmasining navbatdagi jildini tayyorlash doirasida, yetakchi olimlar guruhi, jumladan V.P. Bochantsev, O.N. Bondarenko, T.A. Adylov, R.M. Vinogradova, S.S. Kovalevskaya, M.M. Nabiyev, G.M. Shermatov, M.G. Pakhomova, S.A. Sarkisova, O‘rta Osiyo o‘simliklarining Brassicaceae oilasini to‘liq o‘rganildi. *Pseudoclausia* Popov va *Neuroloma* Andrz. ex DC. turlarining sistematikasi va tarqalishi, hozirda *Parrya* turiga kiritilgan, M.G. Pakhomova tomonidan tadqiq qilingan (1974).

O‘zbekiston florasida *Parrya* turkumining birinchi taksonomik va biogeografik tahlili V.P. Bochantsev va A.I. Vvedenskiy tomonidan amalga oshirilgan (1955). Keyingi yillarda amalga oshirilgan turli floristik va geobotanik tadqiqotlar natijasida (Beshko, 1999; Ibragimov, 2010; Tojibayev, 2002, 2010; Xasanov va boshq, 2013; Batoshev, 2016; Turginov, 2017, 2025; Azimova, 2018; Qodirov, 2020; Achilova, 2021; Abduraimov, 2021; Aromov, 2023 va boshqalar) O‘zbekistonning tabiiy-iqlim mintaqalarida tarqalgan turlarning tarkibi haqida ko‘plab ma’lumotlar to‘plangan. Shuningdek, O‘zbekistonning ma’muriy viloyatlari davlat kadastri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar turlarning xilma-xilligi va zamonaviy geografik tarqalishini o‘rganishga katta hissa qo‘shdi (K.Sh. Tojibayev va boshq., 2018, 2019, 2020, 2021; N.Yu. Beshko va boshq., 2024). Biroq, ushbu tadqiqotlarda O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya* turkumi turlarining xilma-xilligi, ekologiyasi va geografik tarqalishining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanmagan.

2021–2025 yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan “O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi” (№ A-FA-2021-427)

[1] O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

loyihasi doirasida Brassicaceae oilasi, xususan uning tarkibidagi *Parrya* turkumining taksonomik xilma-xilligini aniqlash, to‘r tizimli xaritalash usullaridan foydalangan holda dala tadqiqotlari olib borish va to‘plangan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish rejalashtirilgan. Shu nuqtayi nazardan, “O‘zbekiston florasi” ning yangi nashri uchun O‘zbekiston florasida *Parrya* turkumining taksonomik tuzilishi, ekologiyasi va geografik tarqalishi kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, biologik xilma-xillikni saqlash, kamyob turlar populyatsiyasini monitoring qilish, shuningdek, himoyaga muhtoj turlarning ilmiy asoslarini tayyorlash va muhofaqa qilish muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi yoki ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Botanika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F5-FA-0-64792 “O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi” (2021-2025 yy.) mavzusidagi fundamental loyihasi hamda “Toshkent viloyati florasining kadastri” (2021–2024 yy.) davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya* turkumiga mansub turlarning taksonomik tarkibi, ekologik va geografik xususiyatlarini aniqlash hamda muhofaza qilish choralarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya* turlarining taksonomik tarkibini aniqlash va dixatomik kalitini tuzish;

turkum turlarining O‘zbekiston botanik-geografik rayonlar, yirik tog‘ tizmalari kesimida tarqalishini tahlil qilish;

turkumning barcha turlarini kvadrat indekslar bo‘yicha tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritasini yaratish va tahlil qilish;

Parrya turlarining ekologik tahlilini (balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi, tuproq va topografik xususiyatlari bo‘yicha, yillik o‘rtacha havo harorati, yillik o‘rtacha yog‘inlar miqdori) tahlilini amalga oshirish;

Parrya turlarining kamyob va endem turlarini IUCN mezonlari bo‘yicha kamyoblik maqomini baholash, muhofaza choralarini ishlab chiqish;

Tadqiqotning ob’yekti. O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya* turkumiga mansub o‘simlik turlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Turlarni taksonomiyasi, geografiyasi, ekologiyasi va muhofaza qilishni ilmiy asoslari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishda floristikaning (marshrutli, ekologik, geografik, biomorfologik), statistik tahlil hamda turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalar tuzishning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya*ning 19 turdan iborat zamonaviy konspekti yaratilgan va turlarini aniqlagich kaliti tuzilgan;

turkumning fan uchun yangi *Parrya tojibaevii* D.A. German & Madaminov aniqlangan, turning kamyoblik maqomi belgilangan va O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining yangi nashriga kiritish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan;

turkumning 2 ta yangi seksiya sect. *Pseudoclausia* (Popov) Madaminov va sect. *Parrya* kombinatsiyasi yaratilgan;

turkum turlarini botanik-geografik rayonlar va yirik tog‘ tizmalarida tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritalar yaratish asosida, turkum turlarining biogeografiyasi hamda biologik xilma-xillik xususiyatlari ochib berilgan;

turkum turlarining ekologiyasi (tik mintaqalar bo‘yicha taqsimlanishi, tuproq va topografik xususiyatlari, yillik o‘rtacha havo harorati, yog‘ingarchilik miqdori) bo‘yicha optimal ko‘rsatkichlari aniqlangan;

O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan 4 ta kamyob (*P. saxifraga, P. kuramensis, P. sarawschanica, P. tschimganica*) va 2 ta endem (*P. pjataevae, P. nuratensis*) turlarni saqlab qolish uchun muhofaza choralari ishlab chiqilgan, Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) toifalari bo‘yicha baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston florasi”ning navbatdagi yangi nashri uchun *Parrya* turkumi tahlili amalga oshirilgan va GAT xaritalari taqdim etilgan;

turkumni barcha namunalari asosida 424 gerbariy namunalari asosidagi ma’lumotlar bazasi Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlarning global tizimiga (www.gbif.org, GBIF) joriy etilgan;

kamyob va endem turlarni Xalqaro Qizil kitob mezonlari bo‘yicha baholash, olingan tadqiqot natijalar asosida xavf ostida bo‘lgan kamyob turlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tadqiqot usullarini qo‘llash orqali olingan natijlarning nazariy ma’lumotlarga mos kelishi va respublika hamda xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilganligi, yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, hamda O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), Moskva (MW), Sankt-Peterburg (LE), Almata (AA), Samarqand davlat universiteti (SamDU) va boshqa yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalardan foydalanganligi bilan va dissertatsiya ishining davlat ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida bajarilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya* turlarining taksonomiyasi o‘rganilganligi, O‘zbekiston botanik-geografik rayonlarda taqsimlanishini tavsiflanishi, to‘r tizimli GAT xaritasi yaratilganligi hamda ularni ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya* turlarining kamyob, yo‘qolib borayotgan, endem turlarini muhofaza etish borasidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish, “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashrlarini tayyorlash, ma’lumotlar bazasini yaratish va turlarni tarqalishini aks ettiruvchi GAT haritalari yaratilganligi, yo‘nalishlaridagi fundamental tadqiqotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston florasidagi *Parrya* turkumi turlarini taksonomik, geografik va ekologik o‘rganish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

Parrya turkumining 17 turning 424 namunasi gerbariy na’munalari asosidagi ma’lumotlar bazasi Global bioxilma-xillik ma’lumotlari tizimiga (www.gbif.org,

GBIF) joriy qilingan (Global bioxilma-xillik ma’lumotlari bazasi sertifikati www.gbif.org, 2023-yil 6-dekabr guvohnomasi). Natijada, GBIF portalining turkum vakillari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini boyitish va turkumning geografik, taksonomik va ekologik o‘rganish hamda global tahlil qilish imkonini bergan.

O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya* turkumiga oid 15 ta turning 300 dan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) ilmiy noyob ob’yekti fondiga taqdim etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 18-avgustdagi №4/1255-1750-son ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston hududidan yig‘ilgan O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan *P. saxifraga, P. tschimganica, P. sarawschanica*, *P. nuratensis* kamyob va endem turlarning yangi gerbariy namunalari noyob obyektning O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini boyitgan va turlarning taksonomiyasi, geografiyasi bo‘yicha yangi ma’lumotlar hamda turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari O‘zbekiston florasining elektron ma’lumotlar bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy (Scopus va WOS) bazalarida indekslangan) jurnallarda hamda xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 4 tasi nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dorzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko`rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“*Parrya* bo‘yicha olib borilgan botanik tadqiqotlar taxlili, tadqiqotning obyekti vametodlari”** deb nomlangan bobining birinchi bo‘limida *Parrya* turkumi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, O‘zbekiston Milliy gerbariysida (TASH) saqlanayotgan namunalarning tahlili, uchunchi bo‘limida tadqiqot obyekti va metodlari yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“*Parrya* turkumining taksonomik tarkibi”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston florasidagi *Parrya* turlarining aniqlagich kaliti va O‘zbekiston florasida *Parrya* turkumining konspekti yoritilgan.

Bobning birinchi bo‘limida O‘zbekiston florasidagi *Parrya* turlarining yangi aniqlagich kaliti keltirilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda O‘zbekiston florasi uchun

Parrya turkumining 17 turi tarqalganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan (Al-Shehbaz va German 2013). 2020-2024 yillarda O‘zbekiston hududi bo‘ylab olib borilgan dala tadqiqotlari davomida, fan uchun yangi bo‘lgan taksonlarni topilishi va TASH gerbariy fondida saqlanayotgan gerbariy kolleksiyalarini qayta ko‘rib chiqish natijasida O‘zbekiston florasida uchraydigan *Parrya* turkumining sistematik ro‘yxati 19 turdan iborat ekanligi aniqlandi. Turkumning yangilangan tur tarkibi shakllantirildi. Ilk marotaba *Parrya* turkumi turlari morfologik belgilarga ko‘ra, 2 ta seksiyaga: *Pseudoclausia* (Popov) Madaminov va *Parrya* seksiyalariga ajratildi. Turkumning ilk aniqlagich kalitlari va morfologik tavsifi (Флора СССР И.Т. Васильченко 1939, Флора Узбекистана В.П. Бочанцев va А.И. Введенский 1955, Определитель растений Средней Азии Пахомова М.Г. 1974) adabiyotlarda tarqoq holatda keltirib o‘tilgan. 1939-1974 yillarda qayd etilgan ma’lumotlar ushbu tadqiqot davomida qayta tanqidiy ko‘rib chiqildi va mazkur dissertatsiya ro‘yxatida keltirlayotgan *Parrya* turkumining barcha turlari uchun yangi aniqlagich kaliti tuzildi.

Bobning ikkinchi bo‘limida O‘zbekiston florasidagi *Parrya* turlarini konspekti berilgan. Konspektda har bir tur uchun O‘zbekiston hududida turlarning tarqalishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, turning birlamchi tavsifi, tipi, fenologiyasi, ekologiyasi, areali, kollektorlar va O‘zbekistoning botanik-geografik rayonlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston hududida tarqalgan barcha turlarning GAT xaritalari yaratildi. Konspekt formati “O‘zbekiston florasining” yangi nashri formatiga to‘liq mos keladi.

Dissertatsiyaning **“*Parrya* turlarining keng ko‘lamli tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida geografik (O‘zbekiston botanik-geografik rayonlari va to‘r tizimli xaritada taqsimlanishi), ekologik tahlili (turlarni balandlik mintaqalari bo‘yicha taqsimlanishi, turlarni tuproq va topografik xususiyatlari, yillik o‘rtacha havo harorati va yog‘in miqdori bo‘yicha tarqalishi) bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limi turlarning O‘zbekiston botanik-geografik rayonlari bo‘yicha tarqalishi bo‘yicha tahliliga bag‘ishlangan. O‘zbekiston florasida turkumning 19 turi tarqalganligi aniqlandi. Turlarning asosiy qismi Tog‘lio‘rtaosiyo provinsiyasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu provinsiyada jami turlarning 18 turi uchraydi. Mazkur provinsiya tarkibidagi okruglarning tahlil natijalari turlar boyligiga ko‘ra, G‘arbiy–Tiyonshon okrugi 14 tur yetakchiligini ko‘rsatdi.Ugom-Piskom (12 63.15 %), G‘arbiy-Chotqol (8 42.10 %), Qurama (8 42.10 %) va Arashon (7 36.84 %) botanik-geografik rayonlari egallaydi. Keyingi o‘rinni nisbatan kam farq (7 36.84 %) bilan Kuxiston okrugi egalladi. Nurota (4 21.05 %), G‘arbiy–Hisor (3 15.78 %), Fargona–Oloy (2 10.52 %), Hisor–Darvoz (2 10.52 %) va Panj (1 5.26 %) okruglarining turlar boyligi past ko‘rsatgichga ega.

Turon provinsiyasida esa bu natijalarning aksini ko‘rsatdi va ushbu provinsiya tarkibida faqatgina *P. sarawschanica* turi uchrashi aniqlandi.

Bobning ikkinchi bo‘limida turlarning to‘r tizimli xaritalash bo‘yicha tahliliga bag‘ishlangan. Turlarning to‘r tizimli xaritalash bo‘yicha tahlili O‘zbekiston botanik-geografik okruglar misolida tahlil qilindi. O‘zbekiston florasida tarqalgan *Parrya* turkum turlarining okruglar kesimidagi tor tizimli xaritalarini yaratishda 19 turga tegishli bo‘lgan 701 ta gerbariy namunalardan foydalanildi. To‘r tizimli

xaritalarni yaratishda turlarning indekslar kesimi bo‘yicha taqsimlanishi turlar boyligi (*species richness, SR*) va yig‘malar zichligi (*collection density, CD*) bo‘yicha keltirilgan. Ma’lumotlar 175 ta indekslar bo‘yicha tahlil qilindi (0.9%). Turlar boyligi bo‘yicha maksimal ko‘rsatkich 6 turni (CQ247 indeks), yig‘malar zichligi bo‘yicha esa 65 (CQ247 indeks)ni tashkil etdi.

Turlar boyligining yuqori ko‘rsatkichi (6 ta) G‘arbiy-Tiyonshon okrugining Chotqol (CQ247) tizmasiga (1400–3000 m balandliklariga), nisbatan kam farq bilan (5 ta) mazkur okrugining (CH255) Qurama tizmasiga (1800–2800 m balandliklariga) to‘g‘ri keldi.

Yig‘malar zichligining maksimal koeffitsiyenti Chotqol tizmasiga (CQ247 (67/9.55%)), maksimal koeffitsiyentning keyingi o‘rni ham shu okrugining yana Chotqol tizmasiga (CR248 (44/6.27%)) to‘g‘ri keldi.


Turlarning indekslar kesimi bo‘yicha taqsimlanish natijalari, *Parrya khorasanika* (78 ta) turkum ichidagi boshqa turlarga nisbatan O‘zbekiston florasida keng tarqalish diapazonga ega ekanligini ko‘rsatdi. Keyingi o‘rinlarni keskin farq bilan *Parrya olgae* (24 ta) va *P. gracillima* (20 ta) turlari egalladi. Geografik jihatdan tor tarqalish arealiga ega bo‘lgan turlar qatorini *P. kuramensis* (1 ta), *P. pulvinata* (1ta), *P. stenocarpa* (2 ta), *P. tojibaevii* (3 ta) va *P. pjataeva* (3 ta) kabi turlar egalladi.

Bobning uchinchi bo‘limida turkum turlarining balandlik mintaqalari bo‘yicha taqsimlanishiga bag‘ishlangan. Turkum turlarining balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishiga ko‘ra, 1208–2794 m oralig‘ida tog‘ mintaqasi 18 tur (94.73%) bilan yetakchilik qiladi. Keyingi o‘rinlarni 586–1594 m oralig‘ida adir (12 tur/63.15%) va 2794–3474 m oralig‘ida yaylov (4 tur/21.05%) mintaqalari egallaydi.

Shuningdek, gerbariy namunalari asosida balandlik diapazonini biologik xilma-xillik ko‘rsatkichlari ta’siri ham tahlil qilingan (Wu, et al., 2013). Bunda jamlangan barcha namunalarni 3 guruhga: kichik (100 m), o‘rta (200–800 m) va katta diapazonli (900–3400 m) turlarga ajratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki balandlik diapazoni va biologik xilma-xillik ko‘rsatkichi O‘rtasida tog‘ri korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi. Kichik diapazon guruhi (small range species) 1 tur (*P. kuramensis;* 2118–2204 m oralig‘i), O‘rta diapazon guruhi (medium range species 1 tur (*P. stenocarpa;* 2573–3100 m oralig‘i) va katta diapazon guruhi (large range species) 17 tur (*P. albida, P. asperrima, P. fruticulosa, P. gracillima, P. hispida, P. khorasanica, P. mollissima, P. maidantalica, P. nuratensis, P. olgae, P. pinnatifida, P. pjataevae, P. pulvinata, P. sarawschanica, P. saxifraga, P. tschimganica, P. tojibaevii*; 500–3474 м oralig‘i) bilan ishtirok etadi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha olingan natijalar *Parrya* turlari O‘zbekiston hududida asosan balandlik gradienti bo‘yicha keng tarqalish diapazondagi turlar bilan ishtirok etishini va balandlik turlar xilma-xilligini ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini bildiradi (1-rasm).


Parrya turlarini O‘zbekiston botanik-geografik rayonlarda balandlik mintaqalaridagi o‘rni bo‘yicha tahlili ham amalga oshirildi. Ushbu tahlil ham uchta guruhga ajratildi: kichik diapazondagi turlar – bir yoki ikki rayon chegarasida uchraydi; O‘rta diapazondagi turlar – uch yoki to‘rt rayonlar chegarasida uchraydi;

keng diapazondagi turlar – besh va undan ortiq rayonlar chegarasida uchraydi. Tadqiqotlar davomida *P. pjataevae, P. pulvinata, P. stenocarpa, P. kuramensis, P. maidantalica, P. nuratensis, P. saxifraga, P. tojibaevii* singari turlar bir yoki ikki rayon chegarasida uchrashi aniqlandi va kichik diapazondagi turlar qatoriga kiritildi. *P. albida, P. asperrima, P. mollissima, P. pinnatifida, P. tschimganica, P. gracillima* kabi turlari esa uch yoki to‘rt rayonlarning chegarasida uchrashi aniqlandi va o‘rta diapazondagi turlar qatoriga kiritildi. Shuningdek, keng diapazondagi turlar qatorini *P. hispida, P. olgae, P. fruticulose, P. khorasanica* singari turlar egalladi.



1-rasm. *Parrya* turlarini balandlik mintaqalar bo‘yicha tarqalishi va balandlik diapazonini biologik xilma-xillik ko‘rsatkichlari ta’siri.

Bobning to‘rtinchi bo‘limida turkum turlarining tuproq va topografik xususiyatlari bo‘yicha tarqalishiga bag‘ishlangan. *Parrya* turlari 3 toifadagi (Leptosols, Calcisols, Cambisols) tuproq guruhlari va 5 ta (Mollis Leptosol, Haplic Calcisol, Leptik Calcisol, Chromic Cambisol, Chromic Leptik Cambisol) tuproq birikmalarida tarqalgan. Tuproqlarda turlar boyligi bo‘yicha ham namunalar soniga ko‘ra ham Leptosols guruhi yetakchilik qiladi. Respublikamiz tabiiy florasida tarqalgan *Parrya* turlarining 90 foizi (17 tur) Leptosols, 40 foiz (8 tur) – Calcisols va 32 foiz (6 tur) – Cambisols tuproqlarida uchraydi (2-rasm).



2-rasm. *Parrya* turlarining tuproqlar kesimida turlar xilma-xilligi.

Tuproqlar bo‘yicha tarqalishiga ko‘ra *Parrya* turlari quyida 3 guruhga ajratildi.


1. Barcha tuproq guruhlarida (Leptosols, Calcisols, Cambisols) uchrovchi turlar; *P. fruticulosa*, *P. hispida*, *P. khorasanica*, *P. olgae.* Mazkur turlar turkumning 21% tashkil etadi.

2. Ikki xil tuproq guruhlarida uchrovchi turlar; *P. gracillima*, *P. mollissima*, *P. pinnatifida*. Bu gurugning umumiy ulushi turkumning 16% teng. *P. nuratensis* va *P. sarawschanica* faqat Calcisols tuproqlari uchun xos turlar hisoblanib, mazkur turlar Pomir-Oloy tog‘ tizmalarida tarqalgan. Ammo turkum turlari orasida faqatgina Cambisols tuproqning o‘zigagina tegishli turlar mavjud emas.

3. Faqat bitta tuproq guruhida uchrovchi turlar; *P. albida*, *P. asperrima*, *P. kuramensis*, *P. maidantalica*, *P. nuratensis*, *P. pjataevae*, *P. pulvinate*, *P. sarawschanica*, *P. saxifrage*, *P. stenocarpa*, *P. tschimganica*, *P. tojibaevii.* Ushbu guruh vakillarining hissasi ancha yuqori bo‘lib, turkumning 63% o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikamiz Qizil kitobiga kiritilgan va O‘zbekiston tabiiy florasi uchun kamyob va endem hisoblangan turlarning barchasi uchunchi guruhga mansub bo‘lib faqat bitta tuproq guruhida tuproqlarida tarqalganligi aniqlandi.


Leptosols tuproqlari uchun xos bo‘lgan turlarning 70% G‘arbiy Tiyonshon tog‘ tizmalariga to‘g‘ri keladi. Bitta tuproqqagina xos turlarning 67% (8 tur) Tiyonshon, 25% (3 tur) Pomiroloy va 8% (1 ta tur) Tog‘lio‘rtaosiyo geografik elementlariga tegishli.

Tahlillarni nafaqat tuproq guruhlari bo‘yicha emas balki, tuproq birikmalari kesimida ham amalga oshirganmiz. Quyida *Parrya* turlarining tuproq birikmalari bo‘yicha taqsimlanishini keltirilgan. Tuproq birikmalari orasida turlar xilma-xilligining eng yuqori ko‘rsatkichi Mollis Leptosol ga 17 tur tegishli. Eng past natija Leptik Calcisol tuproq birikmasi hissasiga 4 tur tog‘ri keladi (3-rasm).



3-rasm. Tuproq birikmalari bo‘yicha turlar boyligi.

Gerbariy namunalarining 68.8% (481 ta) Mollis Leptosol tuproq birikmalariga to‘g‘ri keladi va turkumning 17 turini o‘z ichiga oladi. Eng kam natija Leptik Calcisol tuproq birikmalarida 1.4% (10 ta) qayd etildi (4-rasm).



4-rasm. To‘plangan gerbariy namunalarining tuproq birikmalari bo‘yicha taqsimlanishi

Turkum turlarining topografik xususiyatlariga ko‘ra qiyalik darajasi va nishab tomonlari bo‘yicha ham ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. *Parrya* turlari Olii (2020) klassifikatsiyasi bo‘yicha qiyalikning barcha darajalarida (tekis, biroz tik, nishab, tik va juda tik) uchraydi. Turlar xilma-xilligiga ko‘ra eng yaxshi natija tekis hududlarga 18 tur to‘g‘ri keladi, eng quyi ko‘rsatkich esa juda tik mintaqaga 2 tur tegishli. Juda tik yerlarda *P. asperrima*, *P. khorasanica* turlarini uchratish mumkin. Turlar boyligi biroz tik maydonlarda 16 tur, nishab yerlarda 15 tur va tik mintaqada 10 turni tashkil etadi. Qiyalik burchagining o‘tkirlashishi bilan turlar xilma-xilligi pasayib boradi (1-jadval). Turlar xilma-xilligidan farqli ravishda namunalar ko‘lami kattaligi bilan biroz tik mintaqa yetakchilik qiladi. Juda tik maydonlardan gerbariy namunalari eng kam (6 ta) to‘plangan.

1-jadval

To‘plangan gerbariy namunalarini qiyalik klassifikatsiyasi bo‘yicha taqsimlanishi


Species	Slope class					Total
	Flat	Slightly steep	Sloping	Steep	Very Steep	
Parrya albida Popov	2	28	4	16	0	50
Parrya asperrima (B.Fedtsch.) Popov	3	4	13	7	2	29
Parrya fruticulosa Regel & Schmalh.	4	5	29	1	0	39
Parrya gracillima (Popov ex Botsch. & Vved.) D.A. German & Al-Shehbaz	2	15	16	0	0	33
Parrya hispida (Regel) D.A.German & Al-Shehbaz	10	3	2	1	0	16
Parrya khorasanica (Rech.f. & Aellen) D.A.German	41	69	51	13	4	178
Parrya kuramensis Botsch.	4	0	0	0	0	4
Parrya maidantalica Popov & P.A.Baranov	3	4	3	0	0	10
Parrya mollissima (Lipsky) D.A.German & Al-Shehbaz	2	41	21	3	0	67
Parrya nuratensis Botsch. & Vved.	6	6	14	0	0	26
Parrya olgae (Regel & Schmalh.) D.A.German & Al-Shehbaz	19	14	26	3	0	62
Parrya pinnatifida Kar. & Kir.	3	17	1	30	0	51
Parrya pjataevae (Pachom.) D.A.German & Al-Shehbaz	1	0	2	2	0	5
Parrya pulvinata Popov	1	0	0	1	0	2
Parrya sarawschanica (Regel & Schmalh.) Botsch.	9	2	4	0	0	15
Parrya saxifraga Botsch. & Vved	7	13	1	0	0	21
Parrya stenocarpa Kar. & Kir.	0	3	0	0	0	3
Parrya tojibaevii	2	35	0	0	0	37
Parrya tschimganica (Popov ex Botsch. & Vved.) D.A. German & Al-Shehbaz	2	10	1	39	0	52
Total	121	269	188	116	6	700

Bobning beshinchi bo‘limida *Parrya* turlarining yillik o‘rtacha havo harorati va yog‘ingarchilik miqdori bo‘yicha tarqalishi yoritilgan.

Geofazoviy joylashuviga ko‘ra turkum turlari mavjud nuqtalarning yillik o‘rtacha havo harorati –4.2 ºC sovuqdan (*P. maidantalica*) +15.4 ºC issiqgacha (*P. sarawschanica*). Turkum turlari orasida *P. maidantalica* va *P. stenocarpa* eng sovuq sevar o‘simliklar hisoblanadi, ularning populatsiyalari mavjud maydonlarda yillik o‘ratcha harorat –4.2 - 0 ºC, hamda –3.4 - 0 ºC darajani tashkil etadi. *P. maidantalica* O‘zbekiston hududida faqat G‘arbiy Tiyonshonning Ugom, Chotqol tizmalarida, *P. stenocarpa* esa faqat Ugom tizmasida leptosols tuproqlar tarkib topgan erlarda uchraydi. Tadqiqot davomida ma’lum bo‘lgan *P. stenocarpa* ning yana bir o‘ziga xos jihati u qoyalarning faqat shimol tomonga nishab qismlarida o‘sadi. Bundan tashqari *P. saxifraga*, *P. pulvinata, P. maidantalica, P. asperrima*, *P. albida* kabi turlarning namunalari geofazoviy joylashuviga ko‘ra yillik o‘rtacha harorat 0º C darajadan past maydonlarga to‘g‘ri keladi (5-rasm).

Turkum turlarining populyatsiyalari mavjud hududlarning yillik o‘ratcha harorat ko‘rsatkichlari to‘rt darajaga ajratilgan holda tahlil qilindi (FAO, 2021), sovuq (0 ºC darajadan past), o‘rtacha sovuq (+1 +5 ºC), mo‘tadil (+ 5 +10 ºC) va issiq (+ 11 + 15.4 ºC). Turlar xilma-xilligiga ko‘ra eng yaxshi natija yillik o‘ratcha haroratning eng yuqori +11 +5.4 ºC oralig‘iga to‘g‘ri keladi, bu diapazonda *Parrya* turlaridan 14 tasini (74%) namunalarini uchratish mumkin. Keyingi ko‘rsatkich 12 tur namunalari qayt etilgan +5 +10 ºC daraja oralig‘iga tegishli bo‘lsa, uchunchi natija 8 turga ega +1 +5 ºC harorat diapazoniga taluqli. Yillik o‘ratcha harorat 0 ºC darajadan past sovuq maydonlar turlarga eng kambag‘al hududlar bo‘lib, bu oralig‘da 6 tur (31.5 %) tarqalgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki turlar boyligi haroratning ko‘tarilishi bilan tog‘ri proporsional bo‘lib, yillik o‘ratcha harorat ortgani sari turlar xilma-xilligi ham yuqorilab boradi. Tarqalishida harorat diapazoni eng yuqori turlar birinchi to‘rtligi *P. albida* 11.7 ºC (–1 +10.7 ºC), *P.*

asperrima 11.6 ºC (–0.4 +11.2 ºC), *P. saxifraga* 11 ºC (–2.3 +8.7 ºC), va *P. tschimganica* 10.6 ºC (–0.9 +11.5 ºC) ko‘rinishini hosil qiladi. *P. kuramensis* eng qisqa harorat diapazoniga ega tur bo‘lib, uning papulatsiyalari mavjud hududlardagi yillik o‘rtacha harorat farqi 0.2 ºC ga (+4.2 +4.4 ºC) teng. Keyingi qisqa harorat oralig‘iga ega turlarni *P. stenocarpa* 3.4 ºC (–3.4 0 ºC), *P. tojibaevii* 3.9 ºC (+7.6 +11.5 ºC) va *P. maidantalica* 4.2 ºC (–4.2 0ºC) tashkil etadi. Tarqalishida eng qisqa harorat diapazoniga ega turlarning asosiy qisimi sovuq mintaqalarga to‘g‘ri keladi.




5-rasm. *Parrya* turlarining yillik o‘rtacha harorat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tarqalishi

Gerbariy namunalari to‘plash dinamikasining eng yuqori ko‘rsatkichi +5 – 10 ºC harorat kuzatiladigan hududlarda (328 ta, 47%), eng past natija sovuq (0 ºC darajadan past) mintaqada (47 ta, 7 % qayd qilindi. Yillik o‘rtacha harorat +1 +5 ºC darjaga teng o‘rtacha sovuq maydonlardan 74 ta, +11 +15.4 ºC oralig‘idagi haroratga ega issiq yelardadan 251 ta gerbariy namunasi to‘plangan.

Bundan tashqari, *Parrya* turlarining yillik yog‘ingarchilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tarqalishi ham tahlil qilindi. Turkum turlarining gerabariy namunalari geofazoviy joylashuviga ko‘ra 198 – 844 mm yillik atmosfera yog‘inlariga ega hududlarga to‘g‘ri keladi. Yillik yog‘ingarchilikning eng quyi ko‘rsatkichi (198 mm) *P. pinnatifda* turining Sharqiy-Oloy botanik-geografik rayonida dengiz sathidan 643 m balandlikdan yig‘ilgan gerbariy namunalariga tegishli. *P. pinnatifda* populatsiyalari yana G‘arbiy Tiyanshonning Maydontol va Pomiroloyning Oloy, Shimoliy Turkiston tizmalarida tarkib topgan. Eng yuqori yillik atmosfera yog‘inlari mavjud maydonlarda *P. hispida* va *P. mollissima* turlarining bittadan namunalari qayd etilgan. Xar ikki namuna ham Ugom-Piskom botanik-geografik rayoni hududida, dengiz sathidan 1679 m balandlikdan, calcisols tuproqlari mavjud maydonlardan to‘plangan. *P. hispida* namunalari kuzatilgan

hududlarning yillig yog‘ingarchilik miqdori 405 – 844 mm bo‘lsa, bu ko‘rsatkich *P. mollissima* uchun 660 – 844 mm ni tashkil etdi (6-rasm).



6-rasm. *Parrya* turlari o‘sayotgan tabiiy maydonlarning yillik yog‘ingarchilik ko‘rsatkichlari

Parrya turlari tarqalgan hududlarni atmosfera yog‘inlarining yillik miqdoriga ko‘ra uch mintaqaga ajratilgan holda tahlil qilindi. **Kam yog‘inli** maydonlar (yog‘ingarchilik miqdori 198 – 400 mm): Yog‘ingarchilikning past darajasi tufayli, bu maydonlarda turkumning qurg‘oqchilikga chidamli va turli ekologik sharoitlarga moslashuvchan ba’zi turlarini uchratish mumkin. **O‘rtacha yog‘inli maydonlar** (yog‘ingarchilik miqdori 401 – 600 mm): Bu hududlar o‘rtacha yog‘ingarchilikka ega bo‘lib, Yuqori yog‘inli bilan kam yog‘inli o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi. Yog‘ingarchilikning o‘rtacha miqdori bu yerda *Parrya* ning ham kam yog‘inli, ham yuqori yog‘inli mintaqalarga xos turlarini o‘sishiga imkon beradi. **Yuqori yog‘inli hududlar** (yog‘ingarchilik miqdori 601 – 844 mm): Bunday yerlar nam, yuqori yog‘ingarchilikka ega bo‘lib, turli o‘simliklar shu jumladan *Parrya* turlari o‘sishi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Yillik o‘rtacha harorat ko‘rsatkichlarida bo‘lgani kabi, yog‘ingarchilik miqdorida ham turlar xilma-xilligi namlikning ortishiga to‘g‘ri proporsional, yani yog‘ingarchilik miqdori oshgani sari turlar boyligi ham ortib boradi. Yuqori yog‘inli mintaqada turlar xilma-xilligi eng yuqori, turkumning 15 turi tarqalgan. Keyingi natija o‘rtacha yog‘inli yerlarga tegishli bo‘lib, bu maydonlarda *Parrya* ning 13 turini uchratish mumkin. Kam yog‘inli maydonlarda turlar boyligi eng past, bu hududlarda tadqiqot ob’ektining 8 turi qayd etilgan. To‘plangan gerbariy namunalari soni bo‘yicha ham nam mintaqa yetakchilik qiladi va uning hissasiga *Parrya* turlariga tegishli namunalarning 47 foizi (331 ta) tegishli. O‘rtacha yog‘inli yerlardan 316 ta, kam yog‘inli hududlardan 54 ta gerbariy namunalari to‘plangan.

P. khorasanica yillik yog‘ingarchilik miqdorining diapazoni eng katta tur bo‘lib, uning populatsiyalari mavjud maydonlarda yog‘ingarchilik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovut 616 mm ni (209 – 825 mm) tashkil qiladi. Keying natijalar *P. pinnatifda* 498 mm (198 – 696 mm), *P. gracillima* 440 mm (388 – 828 mm) va *P. hispida* 380 mm (405 – 785 mm) turlariga tegishli.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston florasidagi *Parrya* turkumining kamyob va endem turlarning muhofazasi”** deb nomlangan to‘tinchi bobida turkumning kamyob va endem turlarni Xalqaro Qizil kitob mezonlari bo‘yicha baholash va turkumning kamyob va endem turlari saqlab qolib bo‘yicha muhofaza choralari yoritilgan.

Bobning birinchi bo‘limi turkumning Kamyob va endem turlarni Xalqaro Qizil kitob mezonlari (IUCN) bo‘yicha baholash masalalariga bag‘ishlangan. *Parrya* turkum turlari orasida ham muhofazaga muhtoj turlar uchraydi. Bunday turlarga qatoriga *P. kuramensis, P. saxifraga, P. sarawschanica, P. tschimganica, P. tojibaevii* va *P. pjataevae* singari turlarni misol qilib keltirish mumkun. Mazkur turlar O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ning 2019-yil nashrida «1 – yo‘qolib ketish arafasida turgan» (*P. kuramensis, P. tschimganica*) va «2 – kamyob turlar» (*P. saxifraga, P. sarawschanica*) sifatida qayd etilgan.

Turlarning IUCN Qizil ro‘yxat toifalari bo‘yicha tadqiqotlar quyidagi natijalarni berdi; 2 turi (33.3 %) Yo‘qolib ketish xavfi ostida (CR), 3 turi (50 %) Xavf ostida (EN), 1 turi (16.6 %) Ma’lumotlar nuqsonligi (DD) deb baholandi. Bu turlarning asosiy qismi Chotqol va Qurama tizmalarida tog‘ mintaqalarida uchraydi.

Bobning ikkinchi bo‘limi Kamyob va endem turlarning muhofazasiga to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. *Parrya* turkumining kamyob va endem turlari toifasiga kiruvchi *P. sarawschanica* va *P. nuratensis* turlarining populyatsiyalari muhofaza etiladigan hududlarda joylashgan. Ammo, *P kuramensis, P. pjataevae, P. tojibaevii* va *P. tschimganica* turlarining populyatsiyalari esa muhofaza etilmaydigan hududlarda uchraydi. *Parrya* turkum turlari orasida muhofazaga muhtoj turlar ulushi 41.17% tashkil etadi. Bunga asosiy sabab sifatida:

1. turkumning ayrim turlari tabiiy ravishda tor geografik hududda uchrashi;
2. ayrim turlar faqat bitta yoki bir nechta populyatsiyaga ega;
3. reproduktiv qobiliyat yoki tarqalish qobiliyati past;
4. maxsus yashash muhiti yoki o‘ziga xos tuproq sharoitlarini talab qiladigan turlar koeffitsiyenti yuqori ekanligini ko‘rsatish mumkin. Xususan turkum turlar orasida *P kuramensis, P. pjataevae, P. tojibaevii* kabi turlar tabiiy ravishda tor geografik hududda uchraydi va ular faqat bitta yoki bir nechta populyatsiyaga ega. Muhofazaga muhtoj turlarning barchasini reproduktiv qobiliyat yoki germplazma-tarqalish qobiliyati juda past bo‘lib, maxsus yashash muhiti yoki o‘ziga xos tuproq sharoitlarini talab qiladi. Shu sabab, turkum turlarini *ex-situ* sharoitida botanika bog‘larida muhofaza qilish samarasizdir.

P. kuramensis, P. saxifraga, P. sarawschanica, P. tschimganica, P. nuratensis, P. pjataevae, P. tojibaevii singari muhofaqaga muhtoj turlarni tabiatda saqlab qolishning eng samarali usuli tabiatni o‘zida *in-situ* sharoitida muhofaza qilish bo‘yicha sa’y-harakatlar samaradorligini oshirishdir. Bundan tashqari,

kamyob turlarni muhofaza qilishning samarali strategiyasini ishlab chiqish zarur. Shu nuqtayi nazardan, kamyob va endem turlarni muhofaza qilishning samarali strategiyasi ishlab chiqildi.

XULOSALAR

“O‘zbekiston florasidagi *Parrya* R.Br. turkumi turlarining taksonomiyasi, geografiyasi va ekologiyasi” mavzusidagi falsafa doktori dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqorlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Turkum turlari seksiya darajasida (sect. *Parrya* va sect. *Pseudoclausia* (Popov) Madaminov*)* va yangi tur (*Parrya tojibaevii* D.A. German & Madaminov) tavsiflandi. Natijada turkumning O‘zbekiston florasidagi 19 turdan iborat taksonomik tarkibi aniqlandi.

2. O‘zbekiston florasining yangi nashri uchun *Parrya* turkumi turlari birlamchi tavsifi, tipi, fenologiyasi, ekologiyasi, morfologik tavsifi, O‘zbekiston hududida turlarning tarqalish to‘g‘risidagi ma’lumotlar va GAT xaritalari yaratildi. Ushbu ma’lumotlar “O‘zbekiston florasining” yangi nashri formatiga to‘liq mos keladi.

3. Turkumning turlari 73.68% G‘arbiy Tiyonshon va 42.10% Pomiroloy tog‘ tizmalarida tarqalgan bo‘lib, tadqiqot natijlari biologik xilma-xillikning qaynoq nuqtalari G‘arbiy Tiyonshon tog‘ tizmalariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi. Bu esa, qator taksonomik birliklar (*Tulipa* L., *Gagea* Salisb., *Iris* L., *Hedysarum* L. va boshq.) singari *Parrya* turlari uchun ham G‘arbiy Tiyonshon turlar xilma-xilligi va kelib chiqish markazlari to‘g‘risidagi qarashlarni tasdiqdlaydi.

4. *Parrya* turkum turlari balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishiga ko‘ra, kichik diapazonli (100 m, 1 tur), o‘rta (200–800 m, 1 tur) va katta diapazonli (900–3400 m, 17 tur) turlardan tarkib topgan 3 guruhga ajratildi. Tadqiqot natijalari balandlik gradienti ortishi bilan turlarning xilma-xillik ko‘rsatkichi o‘rtasida to‘g‘ri korrelyatsiya mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

5. *Parrya* turkum turlarining tuproq va topografik xususiyatlari bo‘yicha tarqalishi natijalariga ko‘ra, *Parrya* turlarining 90 foizi (17 tur) Leptosols, 40 foiz (8 tur) Calcisols va 32 foiz (6 tur) Cambisols tuproqlarida uchraydi. Topografik xususiyatlariga ko‘ra eng yaxshi natija tekis hududlarga 18 tur to‘g‘ri keladi, eng quyi ko‘rsatkich esa juda tik mintaqaga 2 tur tegishli. Juda tik yerlarda *P. asperrima*, *P. khorasanica* turlarini uchratish mumkin. Turlar boyligi biroz tik maydonlarda 16 tur, nishab yerlarda 15 tur va tik mintaqada 10 turni tashkil etadi. Qiyalik burchagining o‘tkirlashishi bilan turlar xilma-xilligi pasayib boradi.

6. *Parrya* turkum turlari tarqalgan hududlarida yillik o‘rtacha havo harorati –4.2 ºC - +15.4 ºC darajani, atmosfera yog‘inlarining yillik miqdori 198–844 mm ni tashkil etadi. Turlar xilma-xilligining eng yuqori ko‘rsatkichi yillik o‘ratcha haroratning +11 –15.4 ºC oralig‘iga to‘g‘ri keladi, bu diapazonda *Parrya* turlarining 14 tasini (74%) uchratish mumkin. Yog‘ingarchilik miqdoriga ko‘ra turlarga eng boy mintaqa 601–844 mm ko‘rsatkichga ega maydonlar bo‘lib, bu hududlarda turkumning 15 turi tarqalgan.

7. *Parrya* turkum turlarining kamyob va endem turlari IUCN (2022) mezonlari bo‘yicha baholandi. Jumladan Critically endangered (2 tur), Endangered (3 tur) va Data defecient (1 tur) baholandi. Natijalar turlarining asosiy qismi muhofaza qilinmaydigan, antropogen bosim ostidagi hududlarda joylashgan. Bu esa kamyob va endem turlarning muhofaza qilish uchun amaliy choralar ko‘rishni ta’qazo etadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.B.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ

ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

МАДАМИНОВ ФАРРУХБЕК МАЪРУФЖОН УГЛИ

ТАКСОНОМИЯ, ГЕОГРАФИЯ И ЭКОЛОГИЯ ВИДОВ РОДА *PARRYA* R.BR. ФЛОРЫ УЗБЕКИСТАНА

03.00.05 – Ботаника

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема диссертации философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образованияб науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/B723.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу www.botany.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	**Каримов Фарход Исомиддинович** доктор биолоических наук
Официальные оппоненты:	**Рахимова Ташханим** Доктор биологических наук, профессор
	Эсанов Ҳусниддин Қурбонович Доктор биологических наук
Ведущая организация:	**Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится 8 мая 2025 года в 14^{00} часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс: (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрированна за № 70). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул.Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан 24 апрелья 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 9 от 24 апрелья 2025 года).

К.Ш. Тожибаев
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., академик

А.В. Махмудов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, PhD, старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., ведущий научный сотрудник

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сохранение биоразнообразия и обеспечение устойчивости природных экосистем в мире сегодня является глобальной проблемой. Изменение окружающей среды, вызванное различными факторами, служить основной причиной потери биоразнообразия, включая сокращение разнообразие растительного мира. Соответственно, важное научно-практическое значение приобретает определение видового состава растений, распространенных в различных природных зонах, разработка мер по сохранению редких и эндемичных видов.

В контексте сохранения биоразнообразия растений, распространенных в различных природно-географических регионах мира, особое внимание уделяется флористическому анализ, установлению границ ареалов растений, нуждающихся в охране, распределению в зависимости от биотопных и экологических характеристик, а также проведению научных исследований по сохранению редких, эндемичных и находящихся под угрозой исчезновения видов. В частности, важное научно-практическое значение имеет изучение рода *Parrya* R.Br. (*Brassicaceae* Burnett), который в мировой флоре насчитывает 43 вида и отличается обилием редких и эндемичных представителей, имеющих очень узкий ареал распространения.

В настоящее время в нашей республике достигнуты определенные успехи в сохранении биоразнообразия растительного мира. В связи с этим были разработаны меры по защите редких и исчезающих видов растений. В частности, в Стратегии сохранения биоразнообразия в Республике Узбекистан на период 2019–2028 годов определены такие задачи, как “Создание единой системы мониторинга компонентов биологического разнообразия, устанавливающей порядок организации и осуществления мониторинга растительного и животного мира” и“Создание информационной базы данных по государственным кадастрам и мониторингу объектов охраняемых природных территорий, животного и растительного мира на основе современных геоинформационных технологий (ГИС-технологии)”. Исходя из этих задач, определение таксономического состава видов флоры Узбекистана, проведение географического и экологического анализа, изучение влияния абиотических факторов на их распространение и разработка мер по сохранению редких и эндемичных видов имеют важное научное и практическое значение.

